O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Sikoriyni savdoga chiqarish va tijorat sifatini nazorat qilishga doir standart

(FFV-38:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart FVV-38:2023 “concerning the marketing and commercial quality control of chicory
” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi.

Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha biz-ning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Mazkur qayta ko‘rib chiqilgan “Sikoriy” standarti ECE/CTCS/WP.7/2016/19 hujjati aso-sida ishlab chiqilgan hamda Ishchi guruhning yetmish ikkinchi sessiyasida ko‘rib chiqilib, qabul qilingan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

SIKORIYNI SAVDOGA CHIQARISH VA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISHGA DOIR STANDARTI

СТАНДАРТЫ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА ЦИКОРИЯ

STANDARD FOR CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF CHICORY

Amalga kiritish sanasi 01.08.2026 yil

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga yangi holda yetkazib berish uchun mo‘ljallangan *Cichorium intybus* Foliosum guruhiga mansub navlarning ildizlaridan majburiy o‘stirish usuli bilan olingan oq sikoriy va qizil sikoriyga nisbatan qo‘llaniladi. Sanoatda qayta ishlash uchun mo‘ljallangan sikoriy hamda radikkio turlari ushbu standart doirasiga kirmaydi.

II Sifatga oid qoidalar

Mazkur standartning maqsadi sikoriyga tayyorlash va qadoqlashdan keyin qo‘yiladigan sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, standart eksport qilish yoki jo‘natish bosqichidan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda ushbu standart talablariga nisbatan quyidagi o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin:

yangi uzilgan mahsulotga xos yangilik va taranglik xususiyatlarining biroz pasayishi;

«Ekstra» navidan tashqari boshqa navlarga mansub mahsulotlarda ularning tabiiy rivojlanishi va tez buziluvchanligi tufayli sifatning biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ko‘rgazmaga qo‘yishi yoki sotish uchun taklif qilishi yoxud ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan boshqa tarzda yetkazib berishi yoki sotishi mumkin emas.Mulkdor/sotuvchi bunday muvofiqlikka rioya qilinishi uchun javobgardir.

A. Minimal talablar

Har bir nav uchun belgilangan maxsus talablar va ruxsat etilgan chetlanishlar hisobga olingan holda, barcha navlardagi sikoriy quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- butun bo‘lishi;
- sog‘lom bo‘lishi; chirigan yoki iste’mol uchun yaroqsiz holga keltiradigan darajada buzilgan mahsulotlar qabul qilinmaydi;
- toza, ko‘zga ko‘rinadigan begona aralashmalardan deyarli xoli bo‘lishi;
- muzlash va past harorat ta’sirida shikastlanmagan bo‘lishi;
- tashqi ko‘rinishi yangi bo‘lishi;
- zararkunandalardan deyarli xoli bo‘lishi;
- zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan deyarli xoli bo‘lishi;
- gul poyasi boshlang‘ich rivojlanish bosqichida bo‘lmasligi yoki uning uzunligi mahsulot uzunligining to‘rtdan uch qismidan oshmasligi;
- ildiz bo‘yni sathida toza kesilgan yoki sindirilgan bo‘lishi;
- ortiqcha tashqi namlikdan xoli bo‘lishi;
- begona hid va begona ta’mga ega bo‘lmasligi.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHO2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Sikoriyning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:
• tashish va ortib-tushirish jarayonlariga bardosh bera olishi;
• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi.

B. Tasniflash

Sikoriy quyida belgilangan uchta navga bo‘linadi:

(i) Oliy nav

Ushbu navga mansub sikoriy oliy sifatli bo‘lishi kerak. U naviga va tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Oq sikoriy quyidagi talablarga javob berishi kerak:
• yaxshi shakllangan, boshi zich yopiq bo‘lishi, ya’ni boshining uchi konussimon va mahkam yopilgan bo‘lishi;
• qattiq bo‘lishi;
• tashqi barglari sikoriy uzunligining kamida to‘rtdan uch qismini tashkil etishi kerak.

Qizil sikoriy quyidagi talablarga javob berishi kerak:
• yaxshi shakllangan bo‘lishi, bunda tashqi barglari nisbatan zich bo‘lmasligi mumkin;
• qattiq bo‘lishi;
• yorqin rangga ega bo‘lishi kerak.

Sikoriy tashqi ko‘rinishida yashil tusli yoki shishasimon ko‘rinishga ega bo‘lmasligi kerak.

Sikoriy nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak. Biroq mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishi, sifati, saqlanish sifati va qadoqdagi taqdimotiga ta’sir ko‘rsatmaydigan juda kichik yuzaki nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi.

(ii) Birinchi nav

Ushbu navga mansub sikoriy yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. U naviga va tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Oq sikoriy quyidagi talablarga javob berishi kerak:
• yetarli darajada qattiq bo‘lishi;
• tashqi barglari sikoriy uzunligining kamida yarmiga teng bo‘lishi kerak.

Qizil sikoriy rangi kamroq yorqin bo‘lishi mumkin, shuningdek tashqi barglari zich bo‘lmasligi mumkin. Sikoriy tashqi ko‘rinishida yashil tusli yoki shishasimon ko‘rinishga ega bo‘lmasligi kerak.

Biroq, quyidagi kichik nuqsonlarga, ular sikoriyning umumiy tashqi ko‘rinishi, sifati, saqlanish sifati va qadoqdagi taqdimotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan taqdirda, yo‘l qo‘yiladi:
• shaklining unchalik yaxshi bo‘lmasligi;
• boshining uchi yetarli darajada zich yopilmagan bo‘lishi, bunda ochiq qismining diametri sikoriyning eng katta diametrining beshdan bir qismidan oshmasligi kerak;
• o‘zak to‘qimasida shishasimon, kulrang yoki qizg‘ish tusning yengil namoyon bo‘lishi;
• tashqi barglarda yengil qizg‘ish dog‘larning mavjudligi;
yengil ezilish izlarining mavjudligi.

(iii) Ikkinchi nav

Ushbu navga yuqori navlar talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida belgilangan minimal talablarga muvofiq bo‘lgan sikoriy kiritiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XEHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qizil sikoriyning tashqi barglari zich bo‘lmasligi mumkin.

Quyidagi nuqsonlarga, sikoriy o‘zining sifati, saqlanish sifati va taqdimotiga oid asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan taqdirda, yo‘l qo‘yiladi:

- shaklining noto‘g‘ri bo‘lishi;
- boshining uchi qisman ochiq bo‘lishi, bunda ochiq qismining diametri sikoriyning eng katta diametrining uchdan bir qismidan oshmasligi kerak;
- o‘zak to‘qimasida shishasimon, kulrang yoki qizg‘ish tusning mavjudligi;
- tashqi barglarda qizg‘ish dog‘larning mavjudligi;
- ezilish izlarining mavjudligi;
- barg uchlarida yengil yashil tusning mavjudligi.

Qizil sikoriy uchun qo‘shimcha ravishda quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi:

- barg uchlarida yengil qo‘ng‘ir rang o‘zgarishi yoki rangining oqarishi.

III. O‘lchamga oid qoidalar

O‘lcham mahsulotning bo‘ylama o‘qiga perpendikulyar yo‘nalishdagi eng keng qismining diametri hamda uzunligi bo‘yicha aniqlanadi.

Oq sikoriy uchun minimal va maksimal o‘lchamlar (sm hisobida) quyidagicha belgilanadi:

	Oliy navi	I navi	II navi
Minimal diametri	2.5	2.5	2.5
Maksimal diametri	6	8	-
Minimal uzunligi	9	9	6
Maksim al uzunligi	17	20	24

Qizil sikoriy uchun barcha navlar bo‘yicha minimal va maksimal o‘lchamlar (sm hisobida) quyidagicha belgilanadi:

Minimal diametri	2.5
Maksimal diametri	9
Minimal uzunligi	9
Maksim al uzunligi	20 (II navi uchun – 24)

O‘lchamlarning bir xilligini ta’minlash maqsadida, bitta qadoqdagi mahsulotlarning o‘lchamlari o‘rtasidagi farq quyidagidan oshmasligi kerak:

diametri bo‘yicha: «Ekstra» navi uchun 2,5 sm, I navi uchun 4 sm, II navi uchun 5 sm;

uzunligi bo‘yicha: «Ekstra» navi uchun 5 sm, I navi uchun 8 sm, II navi uchun 10 sm.

IV. Ruxsat etilgan og‘ishlar

Savdoga chiqarishning barcha bosqichlarida har bir turkum uchun ko‘rsatilgan nav talablariga javob bermaydigan mahsulotlarga nisbatan sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlarga yo‘l qo‘yiladi.[1]

[1] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki yig‘ma namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Tekshirish tasodifiy tanlab olingan namunalarning sifati butun turkum sifatini ifodalaydi, degan tamoyilga asoslanadi. Muvofiqlikni tekshirishda OECDning Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha amaliy qoidalarini, jumladan, mahsulotni jo‘natish bosqichida, shuningdek ulgurji savdo va taqsimlash markazlari hamda oziq-ovqat chakana savdo korxonalarining omborlarida operatorlar tomonidan ham qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

(i) Oliy nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 5 % gacha ushbu nav talablariga to‘liq javob bermaydigan, biroq birinchi nav talablariga mos keladigan sikoriyning mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ishlar me’yori umumiy miqdorning 0,5 % dan ko‘p bo‘lmagan qismi ikkinchi nav sifat talablariga javob beradigan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(ii) Birinchi nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha ushbu nav talablariga javob bermaydigan, biroq ikkinchi nav talablariga mos keladigan sikoriyning mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ishlar me’yori doirasida doirasida umumiy miqdorning 1 % dan ko‘p bo‘lmagan qismi ikkinchi nav sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki chirish belgilari bo’lmagan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin.

(iii) Ikkinchi nav

Umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha ushbu nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan sikoriylarining mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Ushbu og‘ishlar me’yori doirasida chirish belgilari bo‘lgan mahsulotlarning umumiy ulushi 2 % oshmasligi kerak.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar

Barcha sifat toifalari uchun (kalibrlash amalga oshirilgan hollarda) umumiy hisobda miqdori yoki vazni bo‘yicha 10 % gacha kalibrlash talablariga javob bermaydigan sikoriylar uchun mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi.

V. Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning tarkibi bir xil bo‘lishi hamda faqat bir xil kelib chiqishga, naviga yoki tijorat turiga, sifatiga va o‘lchamiga ega bo‘lgan sikoriydan iborat bo‘lishi kerak.

Biroq, rangi aniq farq qiladigan sikoriylar bir qadoqqa joylanishi mumkin, bunda ular sifati bo‘yicha bir xil bo‘lishi, shuningdek har bir rangdagi sikoriy kelib chiqishi bo‘yicha bir xil bo‘lishi kerak. Bunday aralashmalar uchun esa o‘lchamning bir xilligi talab etilmaydi.

Qadoq tarkibining ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibini ifodalashi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

B. Qadoqlash

Sikoriy mahsulotni yetarli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida qo‘llaniladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan qog‘oz va tamg‘alar kabi materiallardan foydalanishga, bosma yoki markirovka ishlari zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan taqdirda, yo‘l qo‘yiladi.

Qadoqlar har qanday begona aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoq[2] quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim: yozuvlar bir tomonda jamlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan tarzda belgilangan hamda tashqi tomondan ko‘rinadigan bo‘lishi lozim.

A. Identifikatsiya belgilar

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi Kod belgilari reyestriga kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi. Ko‘cha nomi va uy raqami mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridk manzil sifatida fermer xo‘jaligi yoki ob’yektning nomi, eng yaqin qishloq, shahar, viloyat va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin; yoki GPS koordinatalari hamda abonent pochta qutisi raqami eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat nomi bilan birgalikda taqdim etilganda yuridik manzil sifatida qabul qilinadi.

B. Mahsulot tavsifi

Agar qadoq tarkibi tashqi tomondan ko‘rinmasa, mahsulotning tijorat turiga qarab quyidagi nomlardan biri ko‘rsatilishi kerak:

- “Oq sikoriy» yoki «Endiviya»”
- “Qizil sikoriy”;
- “Sikoriy aralashmasi” yoki shunga teng ma’nodagi nom — rangi aniq farq qiladigan sikoriylar aralashmasi uchun. Agar mahsulot qadoqning tashqi tomonidan ko‘rinmasa, qadoqdagi har bir rangdagi mahsulot va uning miqdori ko‘rsatilishi kerak.

[2] Ushbu markirovkalash talablari mazkur ma’lumotlar ko‘rsatilgan tashqi qadoq ichiga joylashtirilgan iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida sotuvga taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan tatbiq etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

C. Mahsulotning kelib chiqishi

Kelib chiqish mamlakati[6] va, ixtiyoriy ravishda, mahsulot yetishtirilgan tuman (hudud) yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy geografik nom.

Kelib chiqishi turli mamlakatlardan bo‘lgan, rangi aniq farq qiladigan sikoriylar aralashmasi qadoqlangan taqdirda, har bir kelib chiqish mamlakati tegishli rang nomi yonida ko‘rsatilishi kerak.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1962-yilda qabul qilingan
So‘nggi marta 2016-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2023-yildagi standart tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan

---

[3] Ayrim mamlakatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq, nom va manzilni to‘liq ko‘rsatish majburiy hisoblanadi. Biroq, kodli belgi qo‘llanilgan taqdirda, uning yonida «Qadoqlovchi va (yoki) jo‘natuvchi» (yoki shunga teng ma’nodagi qisqartma) ko‘rsatilishi kerak. Agar kodni tan olgan mamlakat kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, kodli belgi oldidan ISO 3166 (alfa-2) standartiga muvofiq ushbu mamlakatning ikki harfli kodi keltirilishi kerak.

[4] Qarang: http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html.

[5] Amerika Qo‘shma Shtatlarining pochta qutisi (PO Box) manzilidan foydalanishga doir izohi: bunday manzil ishlab chiqarish obyektini tekshirish yoki mahsulotni qaytarib olish zarurati yuzaga kelganda tezkor choralar ko‘rish imkonini bermasligi mumkin. Shu sababli u qadoqlovchi va jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga oid milliy tamg‘alash talablari tarkibiga kiritilmagan.

[6] Mamlakatning to‘liq nomi yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

Meva va sabzavotlar uchun xalqaro standartlarni qo‘llash bo‘yicha OECD chizmasi ushbu standartni qo‘llashga bag‘ishlangan izohli, rasmlar bilan boyitilgan qo‘llanmani nashr etgan. Mazkur nashrni OECD kitoblar do‘konidan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.oecdbookshop.org.

STANDARTLAR INSTITUTI #EJ3D4XFHQ2 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI